

«TASDIQLANGAN»

**«ASIA ALLIANCE BANK» ATB
Boshqaruvining**

**2024-yil «09» «10» dagi
108/6- sonli qarori bilan**



**«ASIA ALLIANCE BANK» ATBning 15-yilligiga bag'ishlangan Mastercard MPS bilan
qo'shma aksiyani o'tkazish Tartibi**

**Порядок
проведения совместной акции с МПС Mastercard, приуроченной к 15-ой годовщине
АКБ «ASIA ALLIANCE BANK»**

Toshkent - 2024 yil

I. Umumiy qoidalar	I. Общие положения
1. Mazkur «ASIA ALLIANCE BANK» ATBning 15 yilligiga bag'ishlangan Mastercard MPS bilan qo'shma aksiya o'tkazish Tartibi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq g'oliblarni aniqlash, yutuqli o'yin o'tkazish va sovrinlarni topshirish tartibini belgilaydi.	1. Настоящий Порядок проведения совместной акции с МПС Mastercard, приуроченной к 15-ой годовщине АКБ «ASIA ALLIANCE BANK» в соответствии с законодательством Республики Узбекистан определяет порядок определения победителей, розыгрыша и вручения призов.
2. «ASIA ALLIANCE BANK» ATBning 15 yilligiga bag'ishlangan Mastercard MPS bilan qo'shma aksiya lotereya yoki boshqa tavakkalchilikka asoslangan o'yin emas va aksiya ishtirokchilari aksiyada ishtirok etish bilan bog'liq mulkiy risklarni o'z zimmasiga olmaydi.	2. Совместная акция с МПС Mastercard, приуроченной к 15-ой годовщине АКБ «ASIA ALLIANCE BANK» не является лотереей либо иной, основанной на риске игрой, и участники акции не несут имущественных рисков, связанных с участием в акции.
3. Aksiyada ishtirok etish majburiy emas.	3. Участие в акции не является обязательным.
4. Aksiyani o'tkazish tartibi ishtirokchilar tomonidan to'lovlar to'lash bilan bog'liq emas va aksiyaning sovrin jamg'armasi faqat Mastercard MPSdan «ASIA ALLIANCE BANK» ATB hisob raqamiga tushgan mablag'lar hisobidan shakllantiriladi.	4. Процедура проведения акции не связана с внесением участниками платы, и призовой фонд акции формируется исключительно за счет средств, поступивших от МПС Mastercard на счет АКБ «ASIA ALLIANCE BANK».
5. Ushbu Tartibda quyidagi atamalar va ta'riflardan foydalaniladi:	5. В настоящем Порядке используются следующие термины и определения:
Aksiya – «ASIA ALLIANCE BANK» ATBning 15 yilligiga bag'ishlangan Mastercard MPS bilan qo'shma aksiya;	Акция – совместная акция с МПС Mastercard, приуроченной к 15-ой годовщине АКБ «ASIA ALLIANCE BANK»;
komissiya – aksiyani o'tkazish bo'yicha maxsus Komissiya;	комиссия – специальная комиссия по проведению акции;
tashkilotchi – «ASIA ALLIANCE BANK» ATB;	организатор – АКБ «ASIA ALLIANCE BANK»;
tartib – «ASIA ALLIANCE BANK» ATBning 15 yilligiga bag'ishlangan Mastercard MPS bilan qo'shma aksiya o'tkazish Tartibi;	порядок – Порядок проведения совместной акции с МПС Mastercard, приуроченной к 15-ой годовщине АКБ «ASIA ALLIANCE BANK»;
ishtirokchilar – 18 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari yoki chet	участники – граждане Республики Узбекистан, либо иностранные граждане,

el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, agar ko'rsatilgan toifadagi shaxslar belgilangan tartibda berilgan yashash uchun ruxsatnomaga ega bo'lsa.	лица без гражданства, при наличии у указанных категорий лиц вида на жительство, выданного в установленном порядке, и достигшие 18 лет.
II. Aksiya o'tkazish muddatlari	II. Сроки проведения акции
6. Aksiya o'tkazish muddati: 2024-yil 1-noyabrdan 2024-yil 15-dekabrga qadar.	6. Период проведения акции: с 1-го ноября 2024 года по 15 декабря 2024 года включительно.
7. Aksiya uchun sovrinlar o'ynaladigan sana: 2024 yil 20 dekabr.	7. Дата розыгрышей призов акции: 20 декабря 2024 года.
8. Sovrinlar taqdimoti sanasi: o'yin o'tkazilgandan keyin 30-ish kundan kechiktirilmagan vaqtda.	8. Дата вручения призов: не позднее 30 рабочих дней после розыгрыша.
III. Aksiya ishtirokchilari	III. Участники акции
9. Aksiyada 18 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari yoki chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, agar ko'rsatilgan toifadagi shaxslar belgilangan tartibda berilgan yashash uchun ruxsatnomaga ega bo'lsa ishtirok etishi mumkin.	9. В акции могут принимать участие граждане Республики Узбекистан, либо иностранные граждане, лица без гражданства, при наличии у указанных категорий лиц вида на жительство, выданного в установленном порядке, и достигшие 18 лет.
10. Aksiyada ishtirok etish ishtirokchilarning Tartibga to'liq roziligini bildiradi.	10. Участие в акции подразумевает полное согласие участников акции с Порядком.
11. Tashkilotchi xodimlari aksiyada qatnashishi mumkin emas.	11. К участию в акции не допускаются работники организатора.
IV. Aksiyada ishtirok etish shartlari	IV. Условия участия в акции
12. Aksiyada ishtirok etish uchun 2024-yil 1-noyabrdan 15-dekabrga qadar «ASIA ALLIANCE BANK» ATBda ochilgan MPS Mastercard kartalari (shu jumladan virtual) (terminallar orqali xalqaro va mahalliy to'lovlar, shu jumladan Internet orqali xaridlar) yordamida har biri 15 AQSh dollari miqdorda kamida ikkita to'lovni amalga oshirish kerak.	12. Для участия в акции необходимо провести по картам МПС Mastercard (в том числе виртуальных), открытых в АКБ «ASIA ALLIANCE BANK» не менее двух оплат в размере 15 долларов США каждая (международных и локальных оплат через терминалы, в том числе покупки через Интернет) в срок с 1-го ноября 2024 года по 15-е декабря 2024 года включительно.
13. Agar MPS Mastercard kartasi bo'lmasa, aksiyada ishtirok etish uchun Alliance bank mobil ilovasida virtual MPS Mastercard kartasini ochish kerak.	13. При отсутствии карты МПС Mastercard для участия в акции необходимо открыть в мобильном приложении банка Alliance виртуальную карту МПС Mastercard.

<p>14. Aksiya ishtirokchilari tomonidan barcha shartlarning bajarilishini nazorat qilish uchun tashkilotchi xodimlari orasidan bank Boshqaruvi qarori bilan tasdiqlanadigan ishchi guruh tuziladi.</p>	<p>14. Для контроля за выполнением всех условий участниками акции создаётся рабочая группа из числа работников организатора, утвержденная решением Правления банка.</p>
<p>V. Mukofot fondi</p>	<p>V. Призовой фонд</p>
<p>15. Aksiyaning sovrin jamg'armasiga quyidagi sovrinlar kiradi:</p> <p>a) super sovrin – 30 000 000 (o'ttiz million) so'm miqdoridagi pul sertifikatlari;</p> <p>b) qo'shimcha mukofotlar:</p> <p>har biri 15 000 000 (o'n besh million) so'mdan 5 (besh) dona naqd pul sertifikatlari;</p> <p>har biri 10 000 000 (o'n million) so'mdan 5 (besh) dona pul sertifikatlari;</p> <p>har biri 5 000 000 (besh million) so'mdan 5 (besh) dona naqd pul sertifikatlari.</p>	<p>15. Призовой фонд акции включает в себя следующие призы:</p> <p>a) суперприз – денежный сертификат на сумму 30 000 000 (тридцать миллионов) сум;</p> <p>b) дополнительные призы:</p> <p>денежные сертификаты в количестве 5 (пяти) единиц на сумму 15 000 000 (пятнадцать миллионов) сум каждый;</p> <p>денежные сертификаты в количестве 5 (пяти) единиц на сумму 10 000 000 (десять миллионов) сум каждый;</p> <p>денежные сертификаты в количестве 5 (пяти) единиц на сумму 5 000 000 (пять миллионов) сум каждый.</p>
<p>16. Tashkilotchi sovrinlar ro'yxati va hajmini o'zgartirish/kengaytirish huquqiga ega.</p>	<p>16. Организатор имеет право изменить/расширить перечень и размер призов.</p>
<p>VI. Aksiyani o'tkazish tartibi</p>	<p>VI. Порядок проведения акции</p>
<p>17. Ishchi guruh aksiyaning butun davri davomida har kuni operatsiyalar monitoringini olib boradi va aksiyaning barcha shartlarini bajargan ishtirokchilarni aniqlaydi. Aksiyaning barcha shartlarini bajargan ishtirokchilar alohida jadvalda har bir ishtirokchiga o'z ishtirokchi raqami berilgan holda ko'rsatiladi. Raqam potensial ishtirokchilar tomonidan aksiya shartlarini bajarish xronologik tartibida belgilanadi.</p>	<p>17. Рабочая группа ежедневно в течение всего периода проведения акции осуществляет мониторинг операций, в результате которого выявляются участники, выполнившие все условия акции. Участники, выполнившие все условия акции, выписываются в отдельную таблицу, где каждому участнику акции присваивается свой номер участника. Присвоение номера осуществляется в хронологической последовательности выполнения условий акции потенциальными участниками.</p>
<p>18. Ishtirokchilar tomonidan amalga oshirilgan harakatlar monitoringi olib</p>	<p>18. Таблица с номерами участников, после мониторинга совершенных действий</p>

<p>borilgandan so'ng, ishtirokchilar raqamlari ko'rsatilgan jadval 2024-yil 19-dekabrda ushbu Tartibning 55-bandida belgilangan tartibda e'lon qilinadi.</p>	<p>участниками, будет опубликована 19 декабря 2024 года в порядке, указанном в пункте 55 настоящего Порядка.</p>
<p>19. Aksiyaning har bir ishtirokchisi mustaqil ravishda, qulay usulda aksiyani o'tkazish shartlari, aksiya ishtirokchilari ro'yxati, sovrinlar o'ynaladigan joy va vaqt haqidagi ma'lumotlar bilan tanishishi mumkin.</p>	<p>19. Каждый участник акции может самостоятельно, удобным для себя способом ознакомится с информацией касательно условий акции, списка участников акции, места и времени проведения розыгрыша призов.</p>
<p>VII. Aksiya g'oliblarini aniqlash tartibi</p>	<p>VII. Порядок определения победителей акции</p>
<p>20. Sovrinlarning har bir toifasi bo'yicha g'oliblarni aniqlash Random.org saytidagi generator yoki boshqa shunga o'xshash dastur yordamida aksiya tashkilotchisining ixtiyoriga ko'ra aksiya ishtirokchilari raqamlari orasidan tasodifiy raqamlarni tanlash yo'li bilan bir marta amalga oshiriladi, tanlash.</p>	<p>20. Определение победителей, для каждой категории призов осуществляется один раз путем выбора случайных чисел с помощью генератора на сайте Random.org или любой другой аналогичной программы на усмотрение организатора акции, определяющей выигравшие номера участников, путем случайного отбора среди номеров участников акции.</p>
<p>21. O'yinda qo'shimcha sovrinlarni qo'lga kiritgan ishtirokchilarning raqamlari super sovrinlar o'yiniga kiritilishi mumkin emas.</p>	<p>21. Номера участников, выигравшие в розыгрыше дополнительных призов, не могут принимать участие в розыгрыше суперприза.</p>
<p>22. Aksiya g'oliblarini aniqlash uchun tashkilotchi bank boshqaruvi raisining farmoyushiga asosan Aksiyani o'tkazish bo'yicha maxsus Komissiyani tuzadi.</p>	<p>22. Для определения победителей акции, организатором создается специальная Комиссия по проведению акции согласно распоряжению председателя Правления банка.</p>
<p>23. Komissiya tarkibiga quyidagilar kiradi: komissiya raisi – bank boshqaruvi raisining o'rinbosari; komissiya a'zolari — chakana biznes, axborot texnologiyalari, marketing va ishlar boshqarmalari boshliqlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va O'zbekiston Banklari Assotsiatsiyasi vakillari, har bir tashkilotdan bir nafardan;</p>	<p>23. В состав Комиссии входят: председатель комиссии – заместитель председателя Правления банка; члены комиссии – начальники управлений розничного бизнеса, маркетинга, информационных технологий, и делами, а также представители Центрального банка Республики Узбекистан и Ассоциации банков Узбекистана по одному человеку с каждого ведомства;</p>

<p>24. Komissiyaning vazifalariga quyidagilar kiradi:</p> <p>sovrin jamg'armasi o'yiniga tayyorgarlik ko'rishni nazorat qilish;</p> <p>aksiya ishtirokchilarining yakuniy ro'yxatini tasdiqlash;</p> <p>aksiya ishtirokchisi, agar u aksiya shartlarini buzsa, uni chetlashtirish to'g'risida qaror qabul qilish;</p> <p>aksiya shartlarini o'zgartirish bo'yicha takliflar kiritish;</p> <p>fors-major holatlari natijasida aksiyani tugatish yoki to'xtatib turish to'g'risida qaror qabul qilish</p> <p>aksiya tashkilotchisining talabiga ko'ra aksiya davomida yuzaga keladigan dolzarb masalalarni hal qilish;</p> <p>ushbu Tartibga muvofiq aksiya sovrinlari o'yinini o'tkazish;</p> <p>aksiya natijalarini tasdiqlash va tegishli bayonnomani rasmiylashtirish orqali sovrindorlarni aniqlash.</p>	<p>24. В обязанности Комиссии входит:</p> <p>контроль за подготовкой к проведению розыгрыша призового фонда;</p> <p>утверждение итогового списка участников акции;</p> <p>принятие решения об исключении участника акции при нарушении им условий акции;</p> <p>внесение предложений об изменении условий акции;</p> <p>принятие решения о прекращении или приостановлении акции в результате возникновения форс-мажорных обстоятельств;</p> <p>решение текущих вопросов, возникающих в период проведения акции, по требованию организатора акции;</p> <p>проведение розыгрыша призов акции в соответствии с настоящим Порядком;</p> <p>подтверждение результатов проведения акции и определение победителей призов путем составления соответствующего протокола.</p>
<p>25. Komissiya majlisi uning a'zolarining ko'pchiligi ishtirokida vakolatli hisoblanadi.</p>	<p>25. Заседание Комиссии правомочно при участии большинства ее членов.</p>
<p>26. Sovrinlar o'yini natijalari bo'yicha Komissiya bayonnoma tuzadi, unda aksiyaning g'olib ishtirokchilari to'g'risidagi zarur ma'lumotlar ko'rsatiladi. Bayonnoma komissiya raisi, majlisda qatnashgan komissiya a'zolari tomonidan imzolanadi va tashkilotchida saqlanadi.</p>	<p>26. По итогам проведения розыгрыша призов, Комиссией составляется протокол, в котором указывается необходимая информация о выигравших участниках акции. Протокол подписывается председателем Комиссии, присутствующими на заседании членами Комиссии и хранится у организатора.</p>
<p>27. Protokolda quyidagilar aks ettiriladi:</p> <p>sovrinlar o'ynaladigan vaqt va joy;</p> <p>komissiya tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar;</p> <p>sovrinni ko'rsatgan holda sovrinlar o'yinining natijalari va sovrinni yutgan ishtirokchi haqidagi ma'lumotlar.</p>	<p>27. В Протоколе отражаются:</p> <p>время и место проведения розыгрыша призов;</p> <p>сведения о составе Комиссии;</p> <p>результаты розыгрыша призов с указанием приза и сведений об участнике акции, выигравшем приз.</p>

<p>28. Sovrinlar o'yini natijalari va g'oliblar to'g'risidagi ma'lumotlar ushbu Tartibning 55-bandida belgilangan tartibda e'lon qilinadi.</p>	<p>28. Результаты розыгрыша призов и информация о победителях будет опубликована в порядке, указанном в пункте 55 настоящего Порядка.</p>
<p>29. Agar aksiya g'oliblarini aniqlashda ushbu Tartibning 9-bandida ko'rsatilmagan shaxs yoxud muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan shaxs aksiya g'olibi bo'lganligi aniqlansa, tashkilotchi ushbu shaxsni g'oliblar ro'yxatidan chiqaradiva ushbu Tartibga muvofiq sovrinlar o'yinini qayta o'tkazish huquqini o'zida saqlab qoladi.</p>	<p>29. В случае, если при определении победителей акции будет установлено, что победителем акции, стало лицо, не указанное в пункте 9 настоящего Порядка, или недееспособное лицо, или лицо, имеющее ограничение дееспособности, то организатор исключает данное лицо из списка победителей акции и оставляет за собой право провести розыгрыш призов повторно в соответствии с настоящим Порядком.</p>
<p>VIII. Sovrinlarni olish tartibi va shartlari</p>	<p>VIII. Порядок и сроки получения призов</p>
<p>30. Sovrinlar aksiya g'oliblariga taqdirlash marosimida topshiriladi, uni o'tkazish joyi va vaqti aksiya tashkilotchisi tomonidan ushbu Tartibning 55-bandiga muvofiq sovrin o'ynalgan kundan boshlab 2 ish kunidan kechiktirmay e'lon qilinadi.</p>	<p>30. Вручение призов победителям акции проводится на церемонии награждения, о месте и времени проведения, которой организатор акции объявляет в срок не позднее 2-х рабочих дней со дня проведения розыгрыша призов согласно пункту 55 настоящего Порядка.</p>
<p>31. Sovrinni olish uchun aksiya g'oliblari taqdirlash marosimi o'tkaziladigan sanadan kamida 3 ish kuni oldin tashkilotchiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:</p> <p>shaxsni tasdiqlovchi hujjatning asl nusxasi (O'zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti/shaxsni tasdiqlovchi hujjat, O'zbekiston hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning yashash uchun ruxsatnomasi);</p> <p>soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (TIN) nusxasi.</p>	<p>31. Победители акции для получения приза не позднее чем за 3-х рабочих дня до даты проведения церемонии награждения предоставляют организатору следующие документы:</p> <p>оригинал документа, удостоверяющего личность (паспорт/ID гражданина Республики Узбекистан, вид на жительство для иностранных граждан или лиц без гражданства, постоянно проживающих на территории Узбекистана);</p> <p>копию идентификационного номера налогоплательщика (ИНН).</p>
<p>32. Aksiya g'oliblari sovrinlarni olish to'g'risida ma'lumotni quyidagi telefon raqamlari orqali ham olishlari mumkin: +(99871)231-60-00 yoki 1270.</p>	<p>32. Информацию по получению призов победители акции также могут получить по номерам телефонов: +(99871)231-60-00 или 1270.</p>

<p>33. Aksiya g'oliblarining o'yin o'ynalganidan keyin 30 kalendar kun ichida sovrinni topshirish punktiga kelmaganligi ularning sovrinni olishdan bosh tortganligi deb e'tirof etiladi.</p>	<p>33. Неявка победителей акции для получения приза в пункт выдачи призов в течение 30-ти календарных дней после проведения розыгрышей признается в качестве их отказа от получения приза.</p>
<p>34. Aksiya ishtirokchisi o'zi qo'lga kiritgan sovrinni faqat ushbu Tartibda ko'rsatilgan barcha talablar bajarilgan taqdirdagina olishi mumkin.</p>	<p>34. Участник акции может получить выигранный им приз только при выполнении всех требований, указанных в настоящем Порядке.</p>
<p>35. Tashkilotchining aksiya g'oliblariga sovg'alar berish bo'yicha majburiyati jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini ushlab qolish hisobga olingan holda yutuq summasi aksiya g'oliblarining karta hisobiga o'tkazilgan paytdan boshlab tegishli tarzda bajarilgan hisoblanadi.</p>	<p>35. Обязанность организатора по выдаче победителям акции призов, считается исполненной надлежащим образом, с момента перечисления суммы выигрыша на карточный счет победителей акции, с учетом удержания налога на доходы физических лиц.</p>
<p>36. Tashkilotchi soliq qonunchiligiga muvofiq yutuqdan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini ushlab qoladi.</p> <p>Sovrin yutib olgan ishtirokchi sovrinni olishdan bosh tortsa yoki belgilangan muddatda sovrinni olish uchun zarur hujjatlarni bankka taqdim etmasa, tashkilotchi ushbu shaxsni aksiya g'oliblari ro'yxatidan chiqarib tashlaydi va ushbu Tartibga muvofiq sovrinlar o'yinini qayta o'tkazish huquqini o'zida saqlab qoladi.</p>	<p>36. Организатор осуществляет удержание налога на доходы физических лиц с суммы выигрыша согласно налоговому законодательству.</p> <p>В случае отказа участника, выигравшего приз, от получения приза, либо непредставления банку документов, необходимых для получения приза в указанный срок, организатор исключает данное лицо из списка победителей акции и оставляет за собой право провести розыгрыш призов повторно в соответствии с настоящим Порядком.</p>
<p>37. Sovrinlar g'oliblarga shaxsan topshiriladi. Aksiya g'olibi o'zining g'olib deb e'lon qilinishi munosabati bilan yuzaga keladigan huquq va majburiyatlarni to'liq yoki qisman uchinchi shaxslarga topshirishga haqli emas.</p>	<p>37. Призы вручаются победителям лично. Победитель акции не вправе уступать права и обязанности, возникающие в связи с объявлением его победителем, полностью или частично третьим лицам.</p>
<p>IX. Tomonlarning huquq va majburiyatlari</p>	<p>IX. Права и ответственность сторон</p>
<p>38. Aksiya g'olibi aksiyada ishtirok etish va sovrinni olish bilan bog'liq barcha xarajatlarni o'z zimmasiga oladi.</p>	<p>38. Победитель акции берет на себя все расходы, связанные с участием в акции и получением приза.</p>

<p>39. Aksiyada ishtirok etish ishtirokchilarni ushbu Tartib bilan tanishganligi va to'liq roziligini bildiradi.</p>	<p>39. Участие в акции подразумевает ознакомление и полное согласие участников с настоящим Порядком.</p>
<p>40. Aksiya g'olibi deb topilgan ishtirokchilar avtomatik tarzda, qo'shimcha rozilgisiz tashkilotchiga va/yoki uning vakolatli vakiliga uning ismini, familiyasini, otasining ismini, fotosuratini e'lon qilish, shuningdek reklama maqsadlarida aksiyada ishtirok etganlik to'g'risida reklama intervyusi olish, shu jumladan radio va televideniye shuningdek axborotni tarqatishning boshqa vositalari uchun, reklama materiallarini tayyorlash uchun suratga va videotasvirga olish va ulardan muddatini, tarqatish hududini cheklamagan holda foydalanish va qo'shimcha haq to'lamagan holda ishlab chiqarish uchun suratga olish va videotasvirga olish huquqini beradi.</p>	<p>40. Участники, признанные победителями акции, автоматически без дополнительного согласия предоставляют организатору и/или его уполномоченному представителю право на обнародование его имени, фамилии, отчества, фотографии, а также право на рекламное интервью об участии в акции в рекламных целях, в том числе для радио и телевидения, равно как для иных средств распространения информации, право на фото- и видеосъемку для изготовления любых рекламных материалов без ограничения срока их использования, территории распространения и без выплаты дополнительного вознаграждения.</p>
<p>41. Tashkilotchi aksiya ishtirokchilari sovrinni olish uchun zarur bo'lgan hujjatlarning to'g'riligi va o'z vaqtida taqdim etilmaganligi uchun javobgar emas.</p>	<p>41. Организатор не несет ответственность за достоверность и несвоевременность предоставления участниками акции документов, необходимых для получения приза.</p>
<p>42. G'olib bo'lgan ishtirokchilarni aksiyani o'tkazish tartibi bilan o'z vaqtida tanishtirmaslik tegishli Sovrinni olish uchun tashkilotchiga zarur hujjatlarni taqdim etish talablari va muddatlarini buzish uchun asosli sabab bo'lmaydi.</p>	<p>42. Несвоевременное ознакомление с Порядком проведения акции участниками, ставшими победителями, не является уважительной причиной для нарушения требований и сроков предоставления организатору необходимой документов для получения соответствующего Приза.</p>
<p>43. Tashkilotchi ushbu Tartib shartlarini buzgan g'oliblarga, shu jumladan aksiya sovrinlarini berish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etish muddatlarini buzganlarga, shuningdek, bunday ma'lumotlarni taqdim etmagan g'oliblarga aksiya mukofotlarini berishni rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi.</p>	<p>43. Организатор оставляет за собой право отказать в выдаче призов акции победителям, нарушившим условия настоящего Порядка, в том числе нарушившим сроки предоставления информации, необходимой для выдачи призов акции, равно как и победителям, не предоставившим такую информацию.</p>
<p>44. Zarur hollarda tashkilotchi vakolatli davlat organlariga taqdim etish uchun aksiya</p>	<p>44. В случае необходимости организатор вправе затребовать у участников акции необходимую информацию для</p>

<p>ishtirokchilaridan zarur ma'lumotlarni so'rashga haqli.</p>	<p>предоставления в уполномоченные государственные органы.</p>
<p>45. Har qanday ob'ektiv sabablarga ko'ra rejalashtirilgan aksiyani o'tkazish mumkin bo'lmagan taqdirda, shu jumladan kompyuter viruslari bilan zararlanish, avtomatlashtirilgan bank tizimidagi, mobil aloqa tarmog'idagi nosozliklar, nuqsonlar, ruxsatsiz aralashuvlar, qalbakilashtirish, texnik nosozliklar yoki har qanday tashkilotchining nazorati ostida bo'lmagan sabablar, bu aksiyaning bajarilishi, xavfsizligi, adolatligi, halolligi yoki to'g'ri o'tkazilishini buzadigan yoki ta'sir qiladigan sabab bo'lsa, tashkilotchi o'z hohishiga ko'ra aksiyani tugatishi, qayta rejalashtirishi yoki vaqtincha to'xtatib turishi mumkin.</p>	<p>45. В случае, если по какой-либо объективной причине акция не может проводиться так, как это запланировано, включая причины, вызванные заражением компьютерными вирусами, неполадками в автоматизированной банковской системе, сети мобильной связи, дефектами, несанкционированным вмешательством, фальсификацией, техническими неполадками или любой причиной, неконтролируемой организатором, которая искажает или затрагивает исполнение, безопасность, честность, целостность или надлежащее проведение акции, организатор может на свое единоличное усмотрение прекратить, изменить время или временно приостановить проведение акции.</p>
<p>46. Aksiya tashkilotchisi ushbu Tartibning 55-bandida ko'rsatilgan tartibda tegishli ma'lumotlarni joylashtirish orqali aksiyani muddatidan oldin to'xtatish yoki aksiyani o'tkazish muddatini uzaytirish huquqini o'zida saqlab qoladi.</p>	<p>46. Организатор акции оставляет за собой право досрочно прекратить проведение акции или продлить сроки проведения акции, разместив соответствующую информацию в порядке, указанном в пункте 55 настоящего Порядка.</p>
<p>47. Tashkilotchi ishtirokchining xatolarining har qanday oqibatlarini, shu jumladan (lekin ular bilan cheklanmagan) yetkazilgan zararlar uchun javobgar emas.</p>	<p>47. Организатор не отвечает за какие-либо последствия ошибок участника, включая (кроме всего прочего) понесенные убытки.</p>
<p>48. Ishtirokchilar aksiyada ishtirok etish tartibiga rioya qilgan holda, aksiya tashkilotchisi yoki u vakolat bergan shaxslar aksiyada ishtirok etish chog'ida taqdim etilgan o'zlarining shaxsiy ma'lumotlarini aksiya maqsadlari uchun zarur bo'lgan usullarda qayta ishlashiga, jumladan ko'rsatilgan ma'lumotlardan aksiya sovrinlarini o'z egalari topshirishni tasdiqlash maqsadida, shuningdek, ushbu aksiyani o'tkazish bilan bog'liq maqsadlarda ishtirokchilar bilan</p>	<p>48. При выполнении участниками порядка участия в акции, организатор акции, или уполномоченные им лица вправе обрабатывать их персональные данные, предоставленные в ходе участия в акции, способами, необходимыми для целей проведения акции, включая использование указанных данных для целей подтверждения вручения призов акции их обладателям, а также для целей индивидуального общения с участниками в</p>

<p>individual muloqot qilish maqsadida foydalanishga haqli.</p> <p>Ishtirokchilarning shaxsiy ma'lumotlari tashkilotchi tomonidan faqat ushbu aksiya bilan bog'liq holda foydalaniladi va ushbu aksiya bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarda uchinchi shaxslarga berilmaydi.</p> <p>Aksiya davomida ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan barcha shaxsiy ma'lumotlarga nisbatan, tashkilotchi yoki uning vakolatli shaxslari ularning mahfiylik rejimini ta'minlaydi va shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'radi.</p> <p>Aksiya davrida ham, aksiya tugagandan keyin ham aksiyada ishtirok etish fakti, ishtirokchining o'z shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga, elektron pochta orqali xabarlar (shaxsiy kabinet, telefon, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar va h.k.) orqali ushbu aksiya bilan bog'liq reklama va tashkilotchidan ushbu aksiya bo'yicha yozishmalar olishga roziligini bildiradi.</p>	<p>целях, связанных с проведением настоящей акции.</p> <p>Персональные данные участников будут использоваться организатором исключительно в связи с проведением настоящей акции, и не будут предоставляться третьим лицам для целей, не связанных с настоящей акцией.</p> <p>В отношении всех персональных данных, предоставленных участниками в ходе акции, организатором или уполномоченными им лицами будет соблюдаться режим их конфиденциальности, и приниматься меры по обеспечению безопасности персональных данных.</p> <p>Факт участия в акции подразумевает согласие участника на обработку его персональных данных, получение сообщений на электронную почту (личный кабинет, телефон, также через социальные сети и т.д.) рекламы и корреспонденции от организатора, касающихся данной акции как в период проведения акции, так и после окончания акции.</p>
<p>49. Aktsiyaning barcha ishtirokchilari aksiyada qatnashish uchun qilgan barcha xarajatlarini mustaqil ravishda to'laydilar.</p>	<p>49. Все участники акции самостоятельно оплачивают все расходы, понесенные ими для участия в акции.</p>
<p>50. Tashkilotchi aksiya haqida qo'shimcha ma'lumotlarni joylashtirish huquqini o'zida saqlab qoladi.</p>	<p>50. Организатор оставляет за собой право размещать дополнительную информацию об акции.</p>
<p>51. Tashkilotchi o'z hohishiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu Tartibni inobatga olgan holda, mazkur Tartibni buzgan, buzg'unchi tarzda harakat qilgan yoki aksiya bilan bog'liq bo'lgan boshqa shaxsni bezovta qilish, haqorat qilish yoki tahdid qilish niyatida harakat qilgan har qanday shaxsning aksiyada ishtirok etish to'g'risidagi arizasini haqiqiy emas deb topishi, shuningdek aksiyada keyingi ishtirokini taqiqlashi mumkin.</p>	<p>51. Организатор на свое собственное усмотрение с учётом законодательства Республики Узбекистан и настоящего Порядка может признать недействительными все заявки на участие, а также запретить дальнейшее участие в акции любому лицу, которое действует в нарушение настоящего Порядка, действует деструктивным образом или осуществляет действия с намерением досаждать, оскорблять, угрожать или причинять</p>

	беспокойство любому иному лицу, которое может быть связано с акцией.
52. Tashkilotchi aksiyada firibgarlikning oldini olish uchun istalgan vaqtda qo‘shimcha texnik cheklovlar kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Tashkilotchi aksiyada ishtirok etishning halolligini tashkilotchida mavjud bo‘lgan texnik imkoniyatlardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mazkur Tartibni hisobga olgan holda mustaqil ravishda baholaydi.	52. Организатор оставляет за собой право в любой момент вводить дополнительные технические ограничения, препятствующие мошенничеству в акции. Организатор самостоятельно осуществляет оценку добросовестности участия в акции на основании имеющихся у организатора технических возможностей и с учётом законодательства Республики Узбекистан и настоящего Порядка.
53. Aksiya ishtirokchilari uni amalga oshirish davrida yuzaga keladigan barcha savollar bo‘yicha quyidagi telefon raqamlariga murojaat qilishlari mumkin: +(99871) 231-60-00 yoki 1270.	53. По всем вопросам, возникающим у участников акции в период ее проведения, могут обращаться по следующим номерам телефонов: +(99871) 231-60-00 или 1270.
54. Aksiya ishtirokchilarini uni o‘tkazish shartlari to‘g‘risida xabardor qilish ushbu Tartibning 55-bandida belgilangan tartibda reklama ma‘lumotlarini joylashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.	54. Информирование участников акции об условиях ее проведения осуществляется посредством размещения рекламной информации в порядке, указанном в пункте 55 настоящего Порядка.
55. Tashkilotchi www.aab.uz rasmiy veb-saytida («Yangiliklar» bo‘limida), ijtimoiy tarmoqlardagi kanal va sahifalarda: Telegram t.me/asiaalliancebank ; Facebook www.facebook.com/AsiaAllianceBank ; Instagram www.instagram.com/asia_alliance_bank reklama va axborot materiallarini (targ‘ibot roliklari va audio roliklar) aksiya ishtirokchilarini ushbu aksiyaga oid barcha yangiliklar, o‘zgartirishlar va boshqa axborot materiallari to‘g‘risida, shuningdek, tashkilotchining tanloviga ko‘ra, milliy va/yoki hududiy telekanallardan birida, boshqa internet saytlarida, radiostansiyalarda va savdo-ko‘ngilochar markazlarda tashqi reklama orqali xabardor qiladi.	55. Организатор информирует участников акции обо всех новостях, изменениях и иных информационных материалах, касательно данной акции путем размещения рекламно-информационных материалов (рекламные видео и аудио ролики) на официальной веб-странице www.aab.uz (в разделе «Новости»), на каналах и страницах в социальных сетях: Telegram t.me/asiaalliancebank ; Facebook www.facebook.com/AsiaAllianceBank ; Instagram www.instagram.com/asia_alliance_bank , а также, по выбору организатора на одном из национальных и/или региональных телеканалов, других интернет-сайтах, радиостанциях, через наружную рекламу и рекламу в торгово-развлекательных центрах.

<p>56. Tashkilotchi ishtirokchi va unga hamrohlik qiluvchi shaxsning sovrinlar o'yinida/taqdirlash marosimida ishtirok etishi vaqtida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noxush holatlar, baxtsiz hodisalar va boshqa salbiy holatlar uchun javobgar emas.</p>	<p>56. Организатор не несёт ответственности за любые происшествия, несчастные случаи и иные негативные ситуации, которые могут возникнуть при поездке и во время пребывания участника акции и сопровождающего его лица для участия в розыгрыше призов/ церемонии награждения.</p>
<p>57. Aksiyani o'tkazish bilan bog'liq barcha nizolar tashkilotchi va ishtirokchi o'rtasidagi muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi. Tinchlik yo'li bilan kelishuvga erishishning iloji bo'lmasa, nizo O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq sud tartibida ko'rib chiqilishi kerak.</p>	<p>57. Все споры, связанные с проведением акции, решаются путем переговоров между организатором и участником. В случае невозможности прийти к согласию мирным путем, спор подлежит рассмотрению в суде согласно законодательству Республики Узбекистан.</p>
<p>58. Mazkur Tartibda nazarda tutilmagan masalalar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.</p>	<p>58. Вопросы, не предусмотренные настоящим Порядком, регулируются законодательством Республики Узбекистан.</p>
<p>X. Yakuniy qoidalar</p>	<p>X. Заключительные положения</p>
<p>59. Mazkur Tartib talablarini buzganlikda aybdor shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda intizomiy javobgarlikka tortiladilar.</p>	<p>59. Лица, виновные в нарушении требований настоящего Порядка, несут дисциплинарную ответственность в порядке, установленном законодательством.</p>
<p>60. Mazkur Tartib Bank boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.</p>	<p>60. Настоящий Порядок вступает в силу с даты его утверждения Правлением банка.</p>
<p>61. Mazkur Tartib o'zbek va rus tillarida tuzilgan. Agar matnlar o'rtasida biron-bir tafovut yuzaga kelsa, rus tilida bayon etilgan matn ustuvor deb tan olinadi.</p>	<p>61. Настоящий Порядок составлен на узбекском и русском языках. При этом в случае любого разночтения преимущественную силу имеет текст на русском языке.</p>